

YANGI O'ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TA'LIMNI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Jo'rayeva Maftuna Abdusalom qizi

O'zbekiston Respublikasi maktabgacha va
maktab ta'limi vazirligi Surxondaryo viloyati
maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi
Boysun tumani maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi
10-DMTT tashkiloti direktor o'rinbosari.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yangi O'zbekiston sharoitida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning dolzarb jihatlarini hamda zamonaviy yondashuvlari tahlil etilgan. Maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual, ijtimoiy-psixologik va jismoniy rivojlanishiga xizmat qiluvchi yangi pedagogik texnologiyalar, innovatsion metodlar va axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish bo'yicha samarali tajribalar keltirilgan. Shu bilan birga, davlat siyosatida maktabgacha ta'limga berilayotgan e'tibor, mavjud muammolar va ularni hal etish yo'llari ko'rib chiqilgan. Muallif maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanuvchilarning barkamol rivojlanishini ta'minlashda zamonaviy yondashuvlarning ahamiyatini ochib beradi.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim, Yangi O'zbekiston, zamonaviy yondashuv, innovatsion texnologiya, pedagogik metod, axborot-kommunikatsiya vositalari, davlat siyosati, bolalar rivojlanishi.

Bugungi kunda Yangi O'zbekiston taraqqiyotida inson kapitalini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakat kelajagi bo'lgan bolajonlarning har tomonlama yetuk, bilimdon va vatanparvar inson bo'lib ulg'ayishida muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishda zamonaviy yondashuvlarning o'rnini va samaradorligi tahlil qilinadi.

Ta'lim sohasini isloh qilish bugun hukumatimiz diqqat e'tiborida turgan dolzarb sohalardan biri, desak mubolag'a bo'lmaydi. So'nggi yillarda maktabgacha ta'lim

tizimini isloh qilish va rivojlantirishga qaratilgan qonunlar, qarorlar qabul qilinib, amaliyotga joriy etilmoqda.

Shuni aytish joizki, maktabgacha ta'lim yosh bolalarning rivojlanishi uchun ko'plab afzalliklarni beradi. Birinchidan, bu erta savodxonlik ko'nikmalari va til rivojlanishiga yordam beradi. Hikoya, qo'shiq aytish, harflar va so'zlar bilan o'ynash kabi interfaol mashg'ulotlar orqali bolalar boy til muhitiga ega bo'lib, ularning so'z boyligi va muloqot qobiliyatini oshiradi. Bundan tashqari, maktabgacha ta'lim ijtimoiy va hissiy rivojlanishga yordam beradi. Guruh faoliyatida ishtirok etish va tengdoshlari bilan muloqot qilish orqali bolalar qanday qilib hamkorlik qilish, baham ko'rish va nizolarni hal qilishni o'rganadilar, shu bilan ularning ijtimoiy ko'nikmalari va hissiy ongini yaxshilaydi. Bundan tashqari, maktabgacha ta'lim bolalarning kognitiv rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratadi.

Bundan tashqar, maktabgacha ta'limning yana bir muhim jihati hisoblanadi. Bola hayotining dastlabki yillarida boshqalar bilan muloqot qilish, o'z his-tuyg'ularini tushunish va ifoda etish qobiliyati rivojlana boshlaydi. Maktabgacha ta'lim muassasasi bolalarning ijtimoiy va hissiy rivojlanishi uchun maqbul muhitni ta'minlaydi. Bolalar o'z tengdoshlari bilan o'zaro munosabatda bo'lish orqali kelajakda sog'lom munosabatlarni shakllantirish va saqlab qolish uchun zarur bo'lgan almashish, navbatchilik qilish, hamkorlik qilish kabi muhim ko'nikmalarga ega bo'ladilar. Bundan tashqari, maktabgacha ta'lim muassasalari o'qituvchilari bolalarning hissiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashda ularga o'z his-tuyg'ularini aniqlash va tegishli usullar bilan ifodalashda katta ro'l o'ynaydi. Ijtimoiy va hissiy ta'limga erta ta'sir qilish keyingi hayotda ijobiy ruhiy salomatlik va farovonlik uchun asos yaratadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, ahloqiy, estetik jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun sharoitlarni yaratish maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilishning mavjud tartibini qayta ko'rib chiqishni hamda maktabgacha ta'lim xizmatlarini ko'rsatishning zamonaviy usullarini joriy etishni talab qiladi. Inson butun umri davomida axborot va ma'lumotlarni o'ziga qabul qiladi. O'tkazilgan ilmiy tadqiqotlar xulosalariga ko'ra,

inson o'z umri davomida oladigan barcha axborot va ma'lumotlarning 70 foizini 5-6 yoshgacha bo'lgan davrda oladi. Shundan kelib chiqqan holda yosh avlodning yetuk va barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishida maktabgacha ta'lim davrining katta ahamiyatga ega ekanini yaqqol ko'rsatib turibdi. Bunga misol sifatida bog'cha tarbiyasini olgan bola bilan bolalar bog'chasiga bormagan bolani solishtirib ko'rishning o'zi kifoya. Ularning fikrlash darajasi, o'zini tutishi, tarbiyasi o'rtasida katta farq borligini ajratish qiyin emas. Shuning uchun ham davlatimiz tomonidan maktabgacha ta'lim tizimini qayta ko'rib chiqish masalasini davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, bu borada juda katta ishlar va islohotlarni amalga oshirish boshlandi.

Yangi O'zbekistonning „Inson qadri uchun“ tamoyiliga asoslangan holda maktabgacha ta'lim tizimida quyidagi zamonaviy yondashuvlar keng qo'llanilmoqda:

1. Innovatsion pedagogik texnologiyalar: Loyihaviy metod, STEAM ta'lim, Montessori, Reggio Emilia kabi ilg'or yondashuvlar bolalarning mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam bermoqda.
2. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish: Interaktiv ta'lim platformalari, raqamli darsliklar va multimedia vositalari yordamida tarbiyalanuvchilarning bilimga qiziqishini oshirish hamda ularni raqamli dunyoga moslashtirish maqsad qilingan.
3. Inkluziv ta'lim: Har bir bola individual yondashuv asosida tarbiyalanishini ta'minlash uchun imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlash metodikasi yo'lga qo'yilgan.
4. Ota-onalar bilan hamkorlik: Maktabgacha ta'lim muassasalari va ota-onalar o'rtasida doimiy muloqot, ota-onalar uchun psixologik-pedagogik treninglar tashkil etilmoqda.

Shuningdek, hukumat tomonidan maktabgacha ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, kadrlar malakasini oshirish, xususiy bog'chalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.¹

¹ A.V. Shin, Sh.Sh. Mirziyoyeva, I.V. Grosheva, U.T. Mikailova, Y.T. Suleymanova, A.G. Daukayeva, Y.N. Vlasova, Z.F. Galimova "Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida ta'lim jarayonini rejalashtirish". O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim Vazirligi. T.:2020-y.

Xulosa qilib aytganda, Maktabgacha ta'lim sohasida zamonaviy yondashuvlarni tatbiq etish natijasida yosh avlodning intellektual salohiyati yuksalib, ular kelajakda jamiyatda faol, bilimli va mas'uliyatli shaxs bo'lib shakllanishiga zamin yaratilmoqda. Bu esa Yangi O'zbekiston taraqqiyotining mustahkam poydevorini tashkil etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. D.Sh. Mirzayeva. Maktabgacha pedagogika. Durdona nashriyoti. Buxoro 2021.
2. I.V. Grosheva, K.T. Olimov, V.A. Nazarova, G.E. Djanpeisova, U.T Mikailova, D.A. Kenjabayeva, N.B. Gulamova, N.A. Miftayeva. Kuzatish va baholash. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim Vazirligi. T.:2020 y.
3. A.V. Shin, Sh.Sh. Mirziyoyeva, I.V. Grosheva, U.T. Mikailova, Y.T. Suleymanova, A.G. Daukayeva, Y.N. Vlasova, Z.F. Galimova "Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida ta'lim jarayonini rejalashtirish". O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim Vazirligi. T.:2020-y.